

XUDOYBERID TO'XTABOYEV ASARLARIDAGI IBORALARNING MA'NOVIY GURUHLARI

Nigora Jo'ranazarova Qurbonboy qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada frazeologizmlarni jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi va olimlarning qarashlari bayon etilgan. Frazeologik birliklarga tor va keng ma'noda tushunish masalasiga munosabat, ibora va barqaror birikmalar (maqol, matal, aforizm) orasidagi o'xshash va farqli jihatlar yoritilgan. Olimlarning iboraga bergan ta'riflari, iboralarning tilshunosligidagi o'rganilish ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *frazeologizm, turg'un birikmalar, parafraza, leksema, paremiologik birliklar, to'g'ri ma'no, ko'chma ma'no.*

KIRISH

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarini katta qismini bolalarga bag'ishlangan. Biz tadqiqot davomida, "Besh bolali yigitcha", "Sariq devni minib", "Sariq devni o'limi", "Mungli ko'zlar" kabi romanlarida 450 dan ortiq iboralarni 500 marta qo'llaganiga guvoh bo'ldik. Frazeologizmlarni qo'llanishi asar qahramoni ruhiyatini, his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini kitobxonga yetarlicha yetkazib berishga xizmat qiladi. Iboralarni takror qo'llanishi ijodkorning ibora qo'llash mahoratini yana bir bor ko'rsatgan. Chunki, takror qo'llangan iboralar ham o'z o'rnida mohirlik bilan topib ishlatilgan. Frazeologizmlar tarkibida qaysi turkumga oid so'zning yetakchiligiga qarab, ot, fe'l, sifat yoki boshqa komponentli iboralar tashkil qiladi. Shunga ko'ra, quydagi guruhlariga ajratib chiqish mumkin:

Fe'l komponentli frazeologizmlar- Ko'ngilni ko'tarmoq, oyoqqa turguncha, burunlarini yerga ishqalamoq, o'zini qo'yarga joy topolmadi, qari cholning orqasidan oy ko'rishganmi, ko'ngli tog'day ko'tarilib, xafsalasi pir bo'ldi, tilini yarimta qilib, labi-lunji osildi-yu, O'zlarini qo'lga olisholmadi, boshiga uramoq, .Past kelmoq, Do'ppimizni osmonga otdi, Etagidan mahkam ushla, Yuragini taka-puka qilib yubordi, Yuragi tuzdek achishyapti, Qulfi-dili ochilgani, Ko'z tashladi, Ko'nglimdan o'tkazdim, Ko'nglimiz tog' bo'ldi, Joning achishadi.

Sifat komponentli frazeologizmlar- Oq ko'ngil, Ko'ngli bo'sh, Qovog'i soliq, Yuraklari g'ash, Yumshoq tabiatli, .SHarti ketib parti qolgan.

Ravish komponentli frazeologizmlar- yetti uxlab tushimizga ham kirmaydigan (hech qachon) o'ylamagan voqea hodisaga nisbatan aytiladi. Oyog'ini qo'lga olib yugurmoq, ko'z yumib ochguncha, qovog'idan qor yog'ayabdi, bir nafas ichida, Boshdan oyoq.

Romanda qo'llangan iboralarning leksik-semantik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, asar hikoyachisi ya'ni bolalar tilidan qo'llagan. Asarda qo'llangan frazeologizmlarni semantik ma'no ifodalashiga ko'ra quydagi guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Shunga ko'ra, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlaridagi iboralarni quyidagi guruhlarga ajratishni maqsadga muvofiq deb bildik:

1. Inson holatini aks ettiradigan iboralar;
2. Inson harakatini aks ettiradigan iboralar;
3. Miqdor-darajani bildiruvchi iboralar;
4. Buyurish-ta'kid mazmunli iboralar;
5. Hayvon, o'simlik nomlari bilan bog'liq iboralar;
6. Mavhum tushunchani ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;
7. "Yurak" komponentidan tashkil topgan iboralar;
8. "Ko'z" komponentidan tashkil topgan iboralar;
9. "Og'iz" komponentidan tashkil topgan iboralar;
10. "Ko'ngil" komponentidan tashkil topgan iboralar.

1. Inson holatini aks ettiradigan iboralar:

Ko'ngli ochiq, baxtiqaro, oq ko'ngil, dili siyoh, sirkasi suv ko'tarmaydi, ko'zining paxtasi chiqib, qo'l qovushtirmoq, turqu sovuq, qo'li kalta, ona suti og'ziga keldi, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, ko'ngli tog'dek ko'tarildi, qovog'i soliq, og'ziga talqon solgandek, og'zining tanobi qochib, tili tanglayiga yopishgan, o'pkasi to'lib, o'zida yo'q shod, yeng shimarib, mazam yo'q, ko'ngli o'ksik, yuzim shuvut bo'lib, chag'i-chag'iga tegmaydi, ko'zlari ola-kula bo'lib, ko'zim o'tmayapti, to'nini teskari kiymoq, yeng shimarib, ko'ngil to'q, ko'zlari naq joyidan chiqib ketayozdi, yuragini qismoq, yuragini hovuchlab turmoq, qo'lini yuvib qo'ltig'iga artdi, o'zini qo'yarga joy topolmadi, ta'bim juda tirriq bo'ldi, joni achishmoq, ko'rgani ko'zi otgani o'qi yo'q, ko'ngli bo'sh, ko'ngillari joyiga tushmaydi, ko'ngli tog' bo'ldi, o'zini qo'yarga joy topolmaydi, qovog'idan qor yog'ayapti, qulog'im senda, o'zlarini qo'lga olisholmadi, yuragi tuzdek achishyapti, yuraklari g'ash, yuragini taka-puka qilib yubordi, yuraklarimiz ezila boshladi, yumshoq tabiatli, tilini yarimta qilib, lab-lunji osildi-yu, sharti ketib parti qolgan, do'ppisini osmonga otmoq.

2. Inson harakatini aks ettiradigan iboralar:

Etagidan mahkam ushlamoq, oyoqdan qoldi, qo'lga tushmoq, go'riga g'isht qalayapti, miyasini qoqib qo'lga beram, oyoqqa turdi, quyon bo'lmoq, qora tortib kelmoq, qochgani joy topolmay qolmoq, ishimni o'ngidan kelgani, yeng shimarib, chuchvarani xom sanabsiz, burnini yerga ishqalamoq, juftakni rostlab, oyog'imni qo'limga olib, past kelmoq

3. Miqdor-darajani bildiruvchi iboralar:

Bir nafas ichida, yetti uxlab tushimizga ham kirmaydi, tilini yarimta qilib, bir pulcha, zig'ircha ham, besh panjasini og'ziga tiqqan, yetti o'lchab bir kesadi, gapini ikki qilmaslik, ikki dunyoda ham, bir og'iz ko'ngil so'ramagan, tili naq bir qarich osildi.

4. Buyurish-ta'kid mazmunli iboralar:

Podadan oldin chang chiqarma, o'zingni qo'lga ol, ko'ngli to'q, hafsalam pir bo'ldi, ipidan-ignasigacha, yetti o'lchab bir kes, boshiga suv quy, boshiga ko'tarmoq, gapni

ikki qilma,go'ringda to'ng'iz qopgur,oyog'imni yerga tekkizmay,taqdirga tan bermoq,ko'nglini ovlash,og'zingga olma,bo'yniga olmoq,tilingni tiy,tavbasiga tayantirmoq,og'zingga qarab gapir,ko'z olaytirsang tishingni sug'irib olaman.o'lganing ustiga tepgan bo'ldi,burniga suv quymoq,etigidan mahkam ushla,bo'yin tovlamanglar.

5.Hayvon,o'simlik nomlari bilan bog'liq iboralar:

Quyvon bo'lib qolmoq,anqoning urug'i,jahl otiga minmoq,eshak qilib minib olgan,ko'zining paxtasi chiqib,og'zimga talqon solib olgandek,arpasini xom o'rganmi,podadan oldin chang chiqarmaslik,boshida yong'oq chaqmoq,go'ringda to'ng'iz qopgur,ko'pdan quyvon qochib qutilmas,burganing ko'zini ko'rganga o'xshaydi.

6.Mavhum tushunchani ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar:

Ko'nglidan o'tkazdi,ko'nglimni ko'tardi,ko'ngillari joyiga tushdi,ko'ngli to'q,ko'nglimiz tog'dek ko'tarilib ketdi,hafsalasi pir bo'ldi,jin ham urmaydi,ko'ngil so'ragan,bag'ri keng,o'yg'a tolib,taqdirga tan berishdan boshqa ilojim yo'q,esingni yeb qo'yibsan,ko'nglini ovlash,ishtahasi karnay,jonini hovuchlab,baxtiqaro,oq ko'ngil,dili siyoh,ko'ngliga qo'l solmoq,viydonimga dog` tushmasin,tavbasiga tayantirgan,jahl otiga minib oldi,ko'ngli bo'sh,ko'ngli o'ksik,sir boy bermaydi,ko'nglim ozib kabi iboralar.

7."Yurak"komponentidan tashkil topgan iboralar:

Yuragini yorishdi,yuragim qisaveradi,yuragimni hovuchlab yurdi,yuraklari g'ash,yuragi tuzdek achishyapti,yuragini taka-puka qilib yubordi,yuraklari ezilib,yuragim qon bo'lib ketgan,yuragiga o't yoqib,yuragini olib qo'ygan,yuragim orqaga tortib ketdi,yuragim shuv etib ketdi,yuragi o'ynadi kabi.

8."Ko'z"komponentidan tashkil topgan iboralar:

Ko'zdan kechirmoq,ko'zining paxtasi chiqib,ko'z yumib ochguncha,ko'zi tushib qoldi,ko'z ochirgani qo'ymaydi,ko'z o'ngidan nari ketmaydi,ko'z ko'rib quloq eshitmagan,ko'zdan yo'q bo'lib ketguncha,ko'zlari ola-kulasi chiqib ketdi,ko'z o'ngimdan nari ketma,ko'zlari naq joyidan chiqib ketayozdi,ko'rgani ko'zi otgani o'ti yo'q,ko'z tashladi.

9."Og'iz"komponentidan tashkil topgan iboralar:

Og'zingda erib ketadi,og'zini yopmoq,og'ziga kuchi yetmaydigan,bir og'iz ko'ngil so'ramagan,og'zimni tanobi qochib,og'zingga olma, og'izimga alif ham kelmaydi, og'izimga talqon solgandek, og'izingga qarab gapir.

10."Ko'ngil"komponentidan tashkil topgan iboralar:

Ko'nglidan o'tkazdi,ko'nglimni ko'tardi,ko'ngillari joyiga tushdi,ko'ngli to'q,ko'nglimiz tog'dek ko'tarilib ketdi, ko'ngil so'ragan, ko'nglini ovlash,oq ko'ngil, ko'ngli bo'sh,ko'ngli o'ksik, ko'nglim ozib, ko'ngliga qo'l solmoq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

"Sariq devning o'limi"asarida **frazologik** birikmalarning qo'llanilishiga misollar¹: 1. Kerak bo'lsa, men **qo'ydek yuvosh** bo'laman, kerak bo'lsa, tulkidek ayyor bo'laman, sharoit taqozo qilsa, sherdek hamla qilaman... Oralarida bittasi sal **oq ko'ngilroq**... o'shandan ish

¹ Xudoyberdi To'xtaboyev. Sariq devning o' limi. «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

chiqishi mumkin. (61-bet) Qo'ydek yuvosh-iborasi bo'sh,bo'shang,rahimdil ma'nolarini berayapti(O'TFL,47-bet)².Bu ibora"qo'y og'zidan cho'p olmagan bola" iborasiga sinonim bo'la oladi.

Oq ko'ngil-. Yaxshi niyatli,boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan (UQ-414)³.Bu matnimizda ibora halol,pok,toza qalbli ma'nolarini "roq"qiyosiy daraja bilan ifodalyapti.

2. - Uch oy yoningda saqlaysan-u, qanaqa pullar ekanligini bilmaysanmi? O'rozvoy, ko'rib turibmanki, halol, rostgo'y yigitsan, yolg'on gapirib o'rganmagansan. Shuning uchun ham **ko'zingni olib qochyapsan**. Ko'zlaring

esa, hamma gapni aytib turibdi. (62-bet)

Ko'zingni olib qochyapsan- Nazarini boshqa kishining nazari bilan uchrashtirmaslikka harakat qilmoq (O'TFL,111-bet)ma'nolarida kelib turli holatda ishlatilishi mumkin.Misol uchun,hayajondan,uyatdan ,yolg'on gapirganda ishlatiladi.Bu yerda qahramon yolg'on gapirib o'rganmaganligi uchun uyatdan ko'zini olib qochgan.

3-Bilasanmi, Hoshimjon, - derdi ba'zan u, - yuz minglab vijdonli halol yashayotgan kishilar ichida ba'zan bitta-ikkita turqi sovug'i ham uchrab qoladi-yu,hammaning **dilini siyoh** qiladi, oromini o'g'irlyadi. (102-bet)

dilini siyoh- Xafa bo'lmoq(O'TMI-104)⁴

bizga ma'lumki,siyoh qora rangda bo'lib,insonni dilini(yuragi)ni shunga qiyoslaydi.Xafagarchilik,dilni xufton bo'lishi ma'nolarini beradi."Yuragimga chiroq yoqsa ham yorishmaydi"iborasini sinonim sifatida ishlatish mumkin.

4- Seni o'z o'rnimga tuman militsiyasiga boshliq qilib tayinlashlarini so'raganimda, - qoshlarini kerib, har bir so'zini takidlab gapira boshladi Salimjon akam, - boshqalar ham, bu **"ona suti og'zidan ketmagan yigitcha nima karomat ko'r- satarkan?.."** - deb kulishgan edi. (107-bet)ona suti og'zidan ketmagan(kimning).Hali yosh, tajribasiz (salbiy).Sinonimi:Ona sut(i)og'z(i)da(O'TFL,193-bet)-bu ibora kesatiq piching sifatida ishlatilib,yosh ko'rish,o'zidan past bilish o'rinlarida ishlatiladi.

"MUNGLI KO'ZLAR"ASARIDA UCHRAGAN FRAZEOLGIK BIRIKMALAR⁵:

1. To'g'ri, Ilhom, Manzura singari sinfdoshlarimga o'xshab a'lochi bo'lishni, suratim ilg'orlar doskasiga osilishini, majlislarda mening ham nomim o'shalar qatorida **tilga olinishini** pinhona orzu qilardim.

Tilga olish- Kim nimani yoki kimni;nima nimani.Gapirmoq.Varianti til(i)ga olmoq kim(o'zining)nimani(oz ishlatadi),tilga olinmoq nima yoki kim,sinonimi:og'ziga olmoq(O'TFL407).

2.Pochcham yo qo'rqib ketganidan juftakni rostlab qoldi yoki **yuragi yorilib** o'zini tashlab yubordi- Kim yoki nima kimning.Yuragi yorildi kimning.Qattiq cho'chitib

² Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent,1978

³ Mengliyev B . Universal qo'llanma. Toshkent,2020

⁴Yo'ldoshev I.O'zbek-turk maqol iboralari –Toshkent,1998

⁵ Xudoyberdi To'xtaboyev.Besh bolali yigitcha. «Yangi asr avlodi», 2009-yil

qo`rqitmoq. Sinonimi: O`take(si)ni yormoq -o`take(si) yorildi. O`xshashi :Kayf(i) uchdi-kayf(i)ni uchirmoq (O`TFL 270).

3. Sakkizinchini bitirguncha o`nta velosiped pachoqlading, uchta maped, bitta mototsiklning **boshiga suv quyding**- Amalidan , obro`-e`tiboridan mahrum qilmoq; Yo`q bo`lib ketish darajasiga yetkazmoq (O`TMI 101).

XULOSA

Xudoyberdi To`xtaboyev asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalangan. Sababi biz bilamizki, so`zning ta`sir kuchi iborachalik hissiyotga, hayajonga boy bo`lmaydi, ta`sir doirasi ham sust bo`ladi.

Shuning uchun ham aynan iboralardan yozuvchi o`z o`rnida va ta`sirchang ifodalagan. Bu albatta asar qahramonlarini ruhiyatini , his-tuyg`ularini tushunishga yordam beradi. Kitobxonni asarga bo`lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyberdi To`xtaboyev. Sariq devning o`limi. «Yangi asr avlodi», 2017-yil.
2. Rahmatullayev Sh. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. Toshkent, 1978
3. Mengliyev B. Universal qo`llanma. Toshkent, 2020
4. Yo`ldoshev I. O`zbek-turk maqol iboralari –Toshkent, 1998
5. Xudoyberdi To`xtaboyev. Besh bolali yigitcha. «Yangi asr avlodi», 2009-yil